

TERMINOLOGIYA NAZARIYASI VA UNING ASOSIY PRINSIPLARI

Xashimova Xurshida Djuraxanovna,

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Namangan, O'zbekiston

xashimovaxurshida1@gmail.com

+99897-2317501

ANNOTATSIYA

Maqolada terminologiya nazariyasi va uning asosiy prinsiplarining konseptual asoslari, shuningdek, ularning o'zbek texnik terminologiyasiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – turli nazariy maktablarda ilgari surilgan terminologik yondashuvlarni umumlashtirish, termin tanlash va standartlashtirish prinsiplari modelini ishlab chiqish hamda ularni milliy texnik terminologiyada qo'llash yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Metod sifatida tarixiy-komparativ, nazariy-sintetik va empirik tahlil usullari qo'llandi. Natijada aniqlik, tizimlilik, kontekstdan mustaqillik, funksional moslik, qisqalik, milliy-xalqaro moslik hamda kontseptual harmonizatsiyaga asoslangan terminologik prinsiplar modeli ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda yagona terminologik baza yaratish va milliy terminologiya siyosatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, prinsiplar, univokalitet, tizimlilik, standartlashtirish, texnik terminologiya, harmonizatsiya.

THEORY OF TERMINOLOGY AND ITS BASIC PRINCIPLES

ABSTRACT

The article analyzes the conceptual foundations of the theory of terminology and its main principles, as well as the possibilities of their application to Uzbek technical terminology. The purpose of the research is to generalize the terminological approaches put forward in various theoretical schools, develop a model of term selection and standardization principles, and show ways to apply them in national technical terminology. Historical-comparative, theoretical-synthetic, and empirical analysis methods were used as methods. As a result, a model of terminological principles based on accuracy, systematicity, context-independence, functional compatibility, brevity, national-international compatibility, and conceptual

harmonization was developed. This approach serves to create a single terminological base in Uzbekistan and develop a national terminology policy.

Keywords: terminology, principles, univocality, systematicity, standardization, technical terminology, harmonization.

ТЕОРИЯ ТЕРМИНОЛОГИИ И ЕЕ ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются концептуальные основы теории терминологии и её основные принципы, а также возможности их применения к узбекской технической терминологии. Цель исследования – обобщить терминологические подходы, выдвинутые в различных теоретических школах, разработать модель принципов отбора и стандартизации терминов и показать способы их применения в национальной технической терминологии. В качестве методов использовались историко-сравнительный, теоретико-синтетический и эмпирический методы анализа. В результате разработана модель терминологических принципов, основанных на точности, системности, контекстной независимости, функциональной совместимости, краткости, национально-международной совместимости и концептуальной гармонизации. Данный подход служит созданию единой терминологической базы в Узбекистане и разработке национальной терминологической политики.

Ключевые слова: терминология, принципы, однозначность, системность, стандартизация, техническая терминология, гармонизация.

KIRISH

Globallashuv sharoitida texnika va texnologiyalar sohasida yangi terminlarning paydo bo'lishi tabiiy jarayondir. O'zbek tilida texnik terminlarni me'yorlashtirish va yagona standart asosida qo'llash masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki ayrim manbalarda bir xil tushuncha turlicha atamalar bilan ifodalanmoqda. Natijada o'quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar va ishlab chiqarish hujjatlarida nomuvofiqliklar yuzaga kelmoqda. Bu hol ilmiy-texnik taraqqiyotda yagona tushuncha maydonini shakllantirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli o'zbek texnik terminlarini standartlashtirish, yagona elektron terminologik bazani yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Terminologiya va termin tushunchasi nazariy jihatdan bir-biriga yaqin, lekin funksional va struktural jihatdan aniq farqlarga ega bo'lgan kategoriya sifatida qaraladi. Terminologiya – ma'lum fan, texnika yoki boshqa soha doirasida qo'llaniladigan terminlar majmuini hamda ularni strukturaviy, semantik va funksional jihatdan o'rganuvchi sohani bildiradi.

Terminologiya – maxsus sohalarda qo‘llaniladigan atamalar majmui va ularni strukturaviy, semantik hamda funksional jihatdan o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Termin esa – muayyan ilmiy-texnik tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasidir. Shunday ekan, terminologiya nazariy asoslarini o‘rganish va ularni milliy texnik terminologiyada tatbiq etish zaruriy ehtiyojdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Termin tushunchasini talqin etishda tilshunoslikda bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud. O‘quv-manbada ularning eng muhimlari quyidagicha tasniflangan: Substansial (mavhum-mohiy) yondashuv – terminni maxsus so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida qabul qiladi va uning bir ma’noiligi, aniqligi, kontekstdan mustaqilligi va emotsional neytralligi asosiy talablardan biri ekanini ta’kidlaydi. “Termin so‘zi interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e’tirof etilmoqda.”¹

Terminologiyani standartlashtirish nazariyasi bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar izlanish olib borgan. Sager (1990) terminlarni me’yorlashtirish jarayonida lingvistik va texnik yondashuvlar uyg‘unligini ta’kidlaydi. Cabré (1999) esa terminologiya fani nafaqat lug‘at tuzish, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga xizmat qilishini qayd etadi. Lotte (1961) esa terminologik standartlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan.

O‘zbek tilining terminologik qatlami dastlab qadimgi turkiy tilda (VII-X) kuzatilib, keyingi davrlarda ijtimoiy-lisoniy doirasi, miqdor va sifati jihatidan o‘tib bordi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari terminologik leksikaning shakllanishi borasida fikr bildirishga asos vazifasini bajarsa, Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida aynan ma’lum terminologik qatlamdagi (jumladan, professional leksikadagi) so‘zlar turkiy tillarda faol bo‘lib, forsiy tilda uchramasligini, forsiylar ham turkiycha ishlatishini yozadi. Aynan zamonaviy terminografiya bo‘yicha ilk izlanishlar XX asrning 20-yillaridan boshlangan. O‘zbek tilshunosligida ham bu masalaga qator olimlar e’tibor qaratgan. Masalan, To‘xtiyeva (2010) texnik terminlar milliy tilga moslashtirilganda ularning semantik aniqligi va fonetik qulayligi ta’minlanishi lozimligini aytadi. Shuningdek, Jo‘rayev (2020) o‘zbek terminologiyasini zamonaviy korpus texnologiyalari asosida rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Eugen Wüster “Umumiy terminologiya nazariyasi”da termin, tushuncha va konseptual tizim o‘rtasidagi munosabatni markazga olgan va onomaziologik yondashuvni ilgari surgan (Academia). D.S. Lotte (1961) terminologiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan va terminlarni “aniq sistemaning a’zosi” sifatida baholagan.

¹ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2019. — 14-bet.

Substansial yondashuv terminning birma-ma'noliligi va aniqligini asosiy talab deb bilsa, funksional yondashuv uni maxsus vazifaga ega birlik sifatida talqin qiladi. Derivatsion yondashuv esa terminlarning yasaliş jarayonlariga e'tibor qaratadi. Pragmatik yondashuv kontekst va kommunikativ vaziyatlarni inobatga oladi.

M.T. Cabré (1999) terminologiyani nafaqat lug'at tuzish, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirish vositasi sifatida baholaydi. J.C. Sager (1990) esa terminlarni me'yorlashtirishda lingvistik va texnik yondashuvlarning uyg'unligini ta'kidlaydi.

Zamonaviy yondashuvlarda kommunikativ va sotsiokognitiv aspektlar ko'proq e'tiborga olinadi (Protopopescu, 2021). ISO/TC 37 tomonidan qabul qilingan standartlar (ISO 704, ISO 860, ISO 10241) termin tanlash, ta'riflash va harmonizatsiya qilish jarayonlarini tartibga soladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Tarixiy-komparativ tahlil:** Wüster, Lotte, Sager, Cabré kabi olimlarning nazariyalari solishtirildi.
2. **Nazariy-sintetik tahlil:** turli yondashuvlar asosida umumiy prinsiplar modeli ishlab chiqildi.
3. **Empirik tahlil:** IT, elektronika, mexanika va energetika sohalaridan 200 ta termin yig'ilib, ekspertlar tomonidan baholandi.
4. **Ekspert baholash:** 10 nafar mutaxassis (tilshunoslar va texnik mutaxassislar) ishtirokida terminlar aniqlik, fonetik moslik va xalqaro uyg'unlik mezonlari bo'yicha 1–5 ballik tizimda baholandi.

Funksional yondashuv – terminni “funksiya” nuqtayi nazaridan ko'radi: termin asosiy vazifasi – aniq, rekordli, muayyan tushunchani belgilash; termin o'z vazifasini istalgan leksik birlik bajarishi mumkin. Bu yondashuv manbada shunday izohlangan: “Funksional nuqtai nazarga binoan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funksiyaga ega so'zlardir; terminning o'rnini istalgan so'z bosishi mumkin.”²

Derivatsion (yasaliş) yondashuvi — terminlarning shakllanish jarayonlariga e'tibor qaratadi; termin ko'pincha so'z yasash vositalari orqali paydo bo'ladi va uning kelib chiqishi muhim. “Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasaliş jarayonlari bilan chambarchas bog'langan.”

Sistemaviy va semantik yondashuv — terminlarni mustaqil tizim elementlari sifatida ko'rib, ularning sistemaviy o'rni, ichki munosabatlari va ma'no strukturasi tahlil qilinadi. D.Lotte kabi olimlar terminni «aniq sistemaning a'zosi» deb atashgan va uning sistem xarakteri ustida to'xtalganlar.

² Dadaboyev H. *O'zbek terminologiyasi*. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2019. — 15-bet

Pragmatik nuqtai nazar — terminning kontekst, kommunikativ, ishchi muhitdagi roli va ommaviylashuvi, hamda qachon termin umumadabiy tilga o'tishi kabi holatlarni hisobga oladi. Manba terminning kontekstdan qisman mustaqilligi haqida eslatadi (terminning kontekstdan xoli bo'lishi — ideal holat).

Tizimlilik (sistemaviy o'rin) — terminlar faqat mustaqil yakkaxon birliklar emas, balki o'zaro munosabatda bo'lgan sistema a'zolari; ular o'z ma'nolarini shu sistema kontekstida topadi. "Terminlarning terminlar sistemasidagi o'mi, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'mi, mavqei bilan aniqlanadi."

NATIJALAR VA TAHLIL

O'zbekistonda terminologiya bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilingan bo'lsa-da, ular amaliyotda yetarli darajada samarali ishlamayapti. Masalan, **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-maydagi "Terminologiya sohasida ishlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori**³da terminlarni yagona bazaga kiritish belgilangan bo'lsa-da, hali to'liq elektron platforma ishlab chiqilmagan.

Bugungi kunda xalqaro tajribada (masalan, **IATE** yoki **Termium Plus** tizimlari) barcha sohalar bo'yicha yagona terminologik bazalar yaratilgan. O'zbek tilida esa texnik terminlarni qamrab oluvchi korpus yo'q. Natijada, bir xil tushuncha turli manbalarda turlicha ifodalanmoqda:

1. *press-forma* – *shtamp qolip*,
2. *3D printer* – *uch o'lchovli printer*,
3. *mikrochip* – *mayda sxema* va *hokazo*.

Tahlil natijasida quyidagi prinsiplar modeli taklif qilindi:

1. **Aniqlik (univokaliyet):** termin bir ma'noga ega bo'lishi kerak.
2. **Tizimlilik:** terminlar yagona tizim elementlari sifatida qaraladi.
3. **Kontekstdan mustaqillik:** termin ma'nosini kontekstdan qat'i nazar saqlab qoladi.
4. **Funksional moslik:** foydalanuvchilarga tushunarli va qulay bo'lishi zarur.
5. **Qisqalik va morfologik barqarorlik:** ortiqcha qisqartmalarsiz ixchamlik.
6. **Milliy–xalqaro moslik:** xalqaro terminologiya bilan uyg'un, ammo milliy til qonuniyatlariga mos.
7. **Kontseptual harmonizatsiya:** turli tillardagi ekvivalentlar bilan uyg'unlashtirish.

Sintezlangan terminologiya prinsiplar modeli

Tahlil va ekspert baholariga asoslanib, quyidagi terminologiya prinsiplar modeli taklif qilinadi:

³ <https://lex.uz/ru/docs/-4305020>

№	Prinsip	Ta'rif	Amaliy izoh (texnik terminlarda tatbiq)
1	Aniqlik / univokalitet	Har bir termin bir ma'noga ega bo'lishi va boshqa tushunchalardan aniqlik bilan ajralib turishi	Masalan, <i>kompyuter</i> terminining sinonimi «hisoblash mashinasi» sifatida ishlatilsa-da, afzal atama <i>kompyuter</i> bo'lishi kerak
2	Tizimlilik	Terminlar mustaqil emas; ular terminologik tizimga bog'liq bo'lishi kerak	<i>Algoritm</i> va <i>dastur</i> terminlari o'zaro bog'liq va tizimga kiritiladi
3	Kontekstdan mustaqillik	Termin kontekstga bog'liq ravishda ma'nosini yo'qotmasligi kerak	<i>Sensor</i> termi turli ma'nolarda ishlatilmasligi, aniqligi saqlanishi
4	Funksional moslik (kommunikativ)	Termin muloqot ehtiyojlarini qondirishi, foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi	Texnik hujjatlarda, darsliklarda bir xil termindan foydalanilishi
5	Qisqalik va morfologik barqarorlik	Termin ehtiyojga mos ravishda qisqa va qayta ishlovchi morfologik shakllarga ega bo'lishi	<i>DB</i> o'rniga <i>ma'lumotlar bazasi</i> shakli qo'l keladi, lekin ko'p qisqartmalar emas
6	Milliy — xalqaro moslik	Termin o'zbek morfologiyasiga mos bo'lishi bilan birga, xalqaro terminologiya bilan uyg'un bo'lishi	<i>Voltage</i> → <i>kuchlanish</i> atamasi xalqaro va milliy moslikni saqlashi
7	Kontsept / termin harmonizatsiyasi	Turli tillarda yoki sohalarda mos tushunchalar uchun terminlar o'rtasida harmonizatsiya yo'lga qo'yilishi	ISO 860 standarti harmonizatsiya qoidalarini belgilaydi ⁴

MUNOZARA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek texnik terminlarini standartlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Avvalo, mavjud terminlarni yig'ish va elektron bazaga kiritish zarur. Keyinchalik esa xalqaro standartlarga muvofiq, milliy o'ziga xoslikni inobatga olgan holda unifikatsiya qilish lozim.

Shuningdek, lingvistlar, texnik mutaxassislar va IT sohasidagi dasturchilar hamkorligida yagona terminologik platforma ishlab chiqilishi zarur. Bu platforma

⁴ Википедия

onlayn lug‘at, tezkor qidiruv tizimi va avtomatik tarjima imkoniyatlarini ham qamrab olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O‘zbek texnik terminlarini standartlashtirish bo‘yicha milliy strategiya ishlab chiqilishi lozim.
2. Barcha mavjud texnik terminlar yig‘ilib, yagona elektron baza yaratilsin.
3. Yangi terminlar xalqaro tajribaga tayangan holda, ammo milliy fonetik va semantik xususiyatlarni inobatga olgan holda tasdiqlansin.
4. Elektron terminologik platforma davlat tilida ishlab chiqilib, mutaxassislar uchun ochiq resurs sifatida taqdim etilsin.
5. Terminologiya kengashlari faoliyati kuchaytirilib, ularning qarorlari amaliyotda majburiy qo‘llanilishi ta’minlansin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turakulova, U. (2025). ASPECTS OF TEACHING GRAMMAR TO ELEMENTARY AND INTERMEDIATE LEVEL STUDENTS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1216-1219.
2. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
3. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
4. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
5. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
6. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO‘ZLAR CHOG‘ISHTIRMASI.
7. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayr| Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
8. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (“Alpomish” dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.

9. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.
10. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
11. QOBILOVA, Z., & AHMADALIYEV, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 183-189.
12. Ahmadaliyev, L. (2025). QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 382-398.
13. Ahmadaliyev, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 360-367.
14. Lochinbek, A. (2022). “XO ‘QAND TARIXI VA UNING ADABIYOTI”–MANBA SIFATIDA. *OLIIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 250.
15. Muhammadyusuf o‘g‘li, A. L. (2024). KULFAT IJODINING O ‘RGANILISHI. *UBS Scientific Bulletin*, (4), 94-105.
16. G‘anijonovich, T. R. (2025, October). MODAL SO ‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 6, pp. 102-105).
17. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
18. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.
19. Tojimatov, R. G. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO ‘LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOIYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 174-180.
20. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)* (pp. 2100-2103). IEEE.

21. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.
22. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.
23. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(5).
24. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
25. Nuritdinov, A. (2022). O 'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUFI FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
26. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O'zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.